



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20<sup>th</sup> June 2025

---

## **ISLOM TASAVVUFIDA “VAHDAT UL-VUJUD” TA’LIMOTI VA UNING ALISHER NAVOIY BADIY-ESTETIK TAFAKKURIGA TA’SIRI**

Shoirakhon Khujaeva,  
ToshDO‘TAU doktoranti,  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),  
shoiraxon24@gmail.com

### **Annotatsiya:**

Mazkur maqolada islom tasavvufidagi borliqni anglashga doir asosiy konsepsiyalardan biri bo‘lgan “vahdat ul-vujud” ta’limoti tarixiy, nazariy va badiiy kontekstda tahlil qilinadi. Xususan, unda ushbu ta’limotning Boyazid Bistomiy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Fariduddin Attor ijodidagi in’ikosi tadqiq etilib, mazkur manbalarning Alisher Navoiyning tasavvufiy-falsafiy qarashlari va badiiy-estetik tafakkuriga ko‘rsatgan ta’siri o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tasavvuf, vahdat ul-vujud, vahdat ush-shuhud, fanofilloh, vahdat, kasrat, vojib ul-vujud, mumkin ul-vujud.

Islom tasavvufida olamni bilish masalasi markaziy mavzulardan biridir. Bunda zohiriy (aqliy) bilim bilan emas, balki qalb, riyozat va kashf orqali anglashga urg‘u beriladi. Bu borada turli nazariyalar mavjud bo‘lib, ular orasida vahdat ul-vujud (وَاحِدَةُ الْوُجُود) va vahdat ush-shuhud (وَاحِدَةُ الشُّهُود) ta’limotlari alohida o‘rin tutadi.

“Vahdat ul-vujud” (ya’ni, “borliqning birligi”) konsepsiyasiga yaqin bo‘lgan irfoniy-falsafiy g‘oyalarni ilk bor Boyazid Bistomiy (801–875) o‘z ruhiy tajribalari asosida ifoda etgan. Unga ko‘ra, insonning kamolot yo‘li o‘z “nafs”idan – “men”idan butunlay voz kechish orqali Haq bilan uyg‘unlikka erishishga qaratilgan. Bunda Yaratuvchi va yaralmish o‘rtasidagi “ikkilik” – “kasrat” olami yo‘qoladi va solik “birlik” – “vahdat” holatiga kirib, o‘z Yaratguvchisining borlig‘iga singib ketadi. Bu holat tasavvufda “fanofilloh”, ya’ni Allohda mahv bo‘lish deb yuritiladi. Boyazid Bistomiy “Ilohiy muloqot” asarida bu holni quyidagicha tasvirlaydi: “Tangriga juda yaqindan nazar tashladim, keyin meni o‘zidan boshqa har narsadan qaytardi va meni nuri bilan oydinlatdi...So‘ngra mening o‘zligimni U O‘zligiga



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> June 2025

aylantirdi: menga o‘z shaxsiyatimni uning O‘zligi ichida yo‘qottirdi, o‘z shaxsiyatini menga yagona holda ko‘rsatdi. So‘ngra unga uning o‘zligi-la nazar tashladim. Haqqa Haq ila boqqan vaqtimda Haqni Haq-la ko‘rdim va o‘shanda Haqda Haq bilan birga bo‘ldim”<sup>1</sup>. B.Bistomiyning bu qarashlari tavhidga da‘vo qilish sifatida baholanib, ko‘plab islom ulamolari tomonidan keskin qoralangan va hatto uni “kofir” deb e‘lon qilishgan.

Vahdat ul-vujud konsepsiyasining keyinchalik falsafiy mustahkamlanishida Islom falsafasi asoschisi Abu Nasr Forobiy (872–950)ning hissasi alohida ahamiyatga ega. Forobiy ilk bor “vojib ul-vujud” (borligi o‘z-o‘zidan mavjud) va “mumkin ul-vujud” (yaralishi ham, yaralmasligi ham mumkin bo‘lgan mavjudlik) kabi tushunchalarni falsafiy kategoriya darajasiga ko‘tardi. U bu orqali borliqshunoslik (ontologiya)ning asosiy terminlarini ishlab chiqqan bo‘lib, bu atamalar keyinchalik vahdat ul-vujud nazariyasida asosiy tushunchalardan biri sifatida keng qo‘llanilgan.

Forobiy o‘z ta‘limotida “ratsional dalillarni e‘tirof etib, aniq g‘oyalarni bayon etish orqali so‘fiylarning maqsadga erishish yo‘llarini falsafaning ratsional bilimlarini chuqurlashtirishga ko‘maklashuvchi vosita deb baholaydi”<sup>2</sup>.

Mazkur yondashuvni Ibn Sino falsafasiga ham to‘la tatbiq etish mumkin. Chunki uning “Hayy ibn Yaqzon” (“Uyg‘oq o‘g‘li Tirik”), “Tayr qissasi” va “Salamon va Ibsol” kabi falsafiy-hikmatli asarlari zahirida ham chuqur ratsional asos yotadi. Ayniqsa, “Hayy ibn Yaqzon” asarida ilohiy haqiqatga erishish tasavvufda bo‘lgani kabi nafaqat ruhiy poklanish (“tazkiya”) yoki intuitiv ilhom orqali, balki “faol aql” yordamida, ya‘ni olam va odamni aqliy tafakkur bilan anglash orqali ro‘y berishi mumkinligi asoslanadi<sup>3</sup>.

Demak, Forobiy va Ibn Sino tomonidan ilgari surilgan bu yondashuvlar Sharq tafakkurida aql va ruh, falsafa va tasavvuf o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Ularning nazarida, tafakkur – bu faqat dunyoviy haqiqatni emas, balki ilohiy haqiqatni anglashga olib boruvchi yo‘ldir.

<sup>1</sup> Б.Бистомий. Илохий мулоқот / Ислом тасаввуфи манбалари (Тузувчи Ҳ.Болтабоев). – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – Б.73.

<sup>2</sup> Sayyid Muhammad Xotamiy. Islom tafakkuri tarixidan. – Toshkent: Minhoj, 2003. – B.71.

<sup>3</sup> Bu haqda to‘liq ma‘lumot olish uchun qarang: Мамадалиева З. “Лисон ут-тайр” образлари: рамз ва мажоз олами. Монография. (Тўлдирилган ва қайта ишланган 3-нашри). – Тошкент, 2021.



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> June 2025

Professor N.Komilovning tadqiqotlariga ko‘ra, vahdat ul-vujudga oid g‘oyaviy unsurlar Ibn al-Arabiy asarlari Eron va Xuroson hududlarida tarqalishidan avval ham mavjud bo‘lgan. Jumladan, Fariduddin Attor (1145–1221) asarlarida bu konsepsiyaning asosiy komponentlari – ya’ni mavjudotning ilohiy manbadan paydo bo‘lishi, insonning ruhiy safar orqali Haqqa yetishi va Haq bilan ittihad holatiga erishuvi kabi mavzular keng tasvirlangan. Shu bois, N.Komilov Fariduddin Attorni nafaqat ushbu g‘oyaning dastlabki targ‘ibotchilaridan, balki uning asoschilaridan biri sifatida e’tirof etadi<sup>4</sup>.

Fariduddin Attorning asarlari orasida “Mantiq ut-tayr” dostoni alohida o‘rin tutadi. Unda solikning Haq vasliga vosil bo‘lish yo‘li o‘ziga xos ramz va majozlar vositasida ifoda etilgan:

Jumla qushlar suratini ham sarbasar,

Soyayi Simurg‘ bil, ey bexabar<sup>5</sup>.

Muallif asarning markaziy qahramoni Hudhud tilidan olamdagi barcha qushlar, ya’ni mavjudotlar aslida Simurg‘ning soyasi, ya’ni Ilohning aksidir, degan g‘oyani ilgari suradi. Bu yondashuv tasavvufdagi “vahdat ul-vujud” nazariyasining badiiy in’ikosidir. Boshqacha aytganda, barcha mavjudotlar ko‘rinishda xilma-xil bo‘lsa-da, mohiyatan yagona Vujud – Allohning tajallilaridir. Shunday qilib, “Mantiq ut-tayr”da qushlarning safar jarayoni va Simurg‘ bilan yakuniy visoli orqali mavjudotning o‘z manbai – Haqqa intilishi poetik-falsafiy tarzda talqin etiladi.

Mazkur doston aynan shu ramziy-falsafiy yondashuvi sababli Alisher Navoiy dunyoqarashining shakllanishida muhim manba bo‘lgan. Navoiyning o‘zi ham bu asarni bolalik chog‘laridanoq mutolaa qilganini va doston uning qalbida chuqur taassurot qoldirganini qayd etadi. Shu bois “Mantiq ut-tayr” nafaqat Navoiy ijodiga, balki uning tasavvufiy-falsafiy tafakkuriga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan muhim manbalardan biri sifatida e’tirof etilishi mumkin.

“Vahdat ul-vujud”ning aniq falsafiy-nazariy tizim sifatida shakllanishi Muhyiddin Ibn al-Arabiy (1165–1240) nomi bilan bog‘liq. Ibn al-Arabiy bu ta’limotni ilohiyot, metafizika va irfoni tafakkur asosida rivojlantirgan bo‘lib, u

<sup>4</sup> Qarang: Комилов Н. Тасаввуф. Иккинчи китоб: Тавҳид асрори. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1999. – Б.53.

<sup>5</sup> Шайх Фаридууддин Аттор. Мантиқ ут-тайр. Форсийдан Ўзбекистон халқ шоири Жамол Камол таржимаси. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 67.



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20<sup>th</sup> June 2025

tasavvuf tarixida tub burilish yasagan. Mazkur konsepsiyaga ko‘ra, koinotdagi har bir mavjud narsa mutlaq borliq – Allohning turli shakllarda namoyon bo‘lishidir. Shuning uchun mavjudotlar o‘z-o‘zicha mustaqil emas, balki yagona Haqiqatning soyasi yoki tajallisi sifatida mavjuddir. Ibn al-Arabiy nazariyasida “insoni komil” tushunchasi ilohiy haqiqatni anglash va unda yuksalish vositasi sifatida qaraladi. Vahdat ul-vujud nafaqat metafizik tushuncha, balki ruhiy taraqqiyotning asosiy yo‘nalishi bo‘lib, u orqali so‘fiylar Alloh bilan birlashish (ittihod) maqsadiga yetishga intiladi. Bu ta‘limot musulmon Sharqida falsafa, adabiyot va san‘atga chuqur ta‘sir ko‘rsatgan.

Xususan, mazkur g‘oyalar turkiy adabiyot namoyandalarining, jumladan, Alisher Navoiy ijodiy-estetik qarashlarining shakllanishida muhim rol o‘ynagan. “Bunga birinchi sabab tasavvufiy tushunchaning keng tarqalishi va umuminsoniy shon-shuhratga erishtirgan jihatlardan biri vahdati vujud deb qaralgani hamda tasavvufning tub mazmun-mohiyati vahdati vujudda deb anglangani bo‘lsa, ikkinchi bir sabab Navoiy mansub naqshbandiylik tariqatining yirik vakillari, jumladan, Abdurahmon Jomiyning Ibn Arabiy asarlariga favqulodda e‘tiboridir”<sup>6</sup>. “Xamsat ul-mutahayyirin” asarida keltirilishicha, A.Jomiy Ibn al-Arabiyning falsafiy asarlariga sharhlar yozgan. Xususan, adibning “Naqd un-nusus” (“Hujjatlar sarasi”) va “Naqshi Fusus” (“Hikmatlar naqshi”) asarlari shular jumlasidandir<sup>7</sup>.

Alisher Navoiy Ibn al-Arabiy tomonidan asoslangan vahdat ul-vujud konsepsiyasini nafaqat adabiy obrazlar orqali ifodalagan, balki uni o‘zining ruhiy-ma‘naviy tajribasi va irfoniy dunyoqarashi bilan uyg‘unlashtirib, uning mazmunini yanada boyitgan. A.Navoiy uchun insonning kamolot yo‘li – bu o‘z “men”ini inkor etib, Haq vujudida yo‘q bo‘lish, ya‘ni fano holatiga yetishdir.

Ey suluk ahli, qachon maqsud topqumdur desang,

Mosivallohni fano ko‘rgan kunin miy‘od bil<sup>8</sup>.

Mutafakkirning uqtirishicha, tasavvufning tub mag‘zini ham ana shu g‘oya tashkil etadi:

<sup>6</sup> Хаққулов И. Навоийга қайтиш. 2-китоб. – Тошкент: Фан, 2011. – Б.58.

<sup>7</sup> Qarag‘ang: Алишер Навоий. Ҳамсат ул-мутаҳаййирин. МАТ. 20 жилдлик. 15-жилд. – Тошкент: Фан, 1999. – Б.168.

<sup>8</sup> Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Фаройиб ус-сиғар. МАТ. 20 жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: Фан, 1988. – Б.233.



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20<sup>th</sup> June 2025

Qilib Haq vujudida mahv o‘z vujudin,  
Navoiy, muni bil tariqi tasavvuf<sup>9</sup>.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy tafakkuri Ibn al-Arabiyning vahdat ul-vujud konsepsiyasi bilan uyg‘un ravishda, olamdagi har bir narsa Allohning tajallisidir degan g‘oyani adabiy va falsafiy obrazlar orqali yuksak darajada ifodalaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Фаройиб ус-сиғар. МАТ. 20 жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: Фан, 1988.
2. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Фавойид ул-кибар. МАТ. 20 жилдлик. 6-жилд. – Тошкент: Фан, 1990.
3. Алишер Навоий. Ҳамсат ул-мутаҳаййирин. МАТ. 20 жилдлик. 15-жилд. – Тошкент: Фан, 1999.
4. Б.Бистомий. Илоҳий мулоқот / Ислом тасаввуфи манбалари (Тузувчи Ҳ.Болтабоев). – Тошкент: Ўқитувчи, 2005.
5. Комилов Н. Тасаввуф. Иккинчи китоб: Тавҳид асрори. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1999.
6. Мамадалиева З. “Лисон ут-тайр” образлари: рамз ва мажоз олами. Монография. (Тўлдирилган ва қайта ишланган 3-нашри). – Тошкент, 2021.
7. Шайх Фаридуддин Аттор. Мантиқ ут-тайр. Форсийдан Ўзбекистон халқ шоири Жамол Камол таржимаси. – Тошкент: Фан, 2006.
8. Ҳаққулов И. Навоийга қайтиш. 2-китоб. – Тошкент: Фан, 2011.
9. Sayyid Muhammad Xotamiy. Islom tafakkuri tarixidan. – Toshkent: Minhoj, 2003.

<sup>9</sup> Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Фавойид ул-кибар. МАТ. 20 жилдлик. 6-жилд. – Тошкент: Фан, 1990. – Б.188.